



THE IMPACT OF ANTHROPOGENIC FACTORS ON CHUMQARTAG AND ITS NORTHERN SLOPES

Dildora Akhmedova

Master's student

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Chumqartog, Aiqr Mountains, Tagop village, foothill population and agriculture, anthropogenic factors, desertification problem, geographical forecasting, assessment.

Received: 30.11.24

Accepted: 02.12.24

Published: 04.12.24

Abstract: This article analyzes the landscapes of Chumqartag and its northern slopes, studying the negative and positive impacts of human activity on them. The main focus is on the impact of agriculture, production and infrastructure construction on the ecological environment. As a result of the study, the main anthropogenic factors leading to the disruption of the natural balance in the region were identified and recommendations were made.

CHUMQORTOG‘ VA UNING SHIMOLIY YONBAG‘IRLARIGA ANTROPOGEN OMILLARNING TA‘SIRI

Dildora Ahmedova

Magistratura talabasi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Chumqortog‘, Oyqor tog‘lari, Tagop qishlog‘i, tog‘ oldi aholisi va qishloq xo‘jaligi, antropogen omillar, cho‘llanish muammosi, geografik pragnozlash, baholash.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Chumqortog‘ va uning shimoliy yonbag‘ilar landshaftlari tahlil qilinib, ularga inson faoliyatining salbiy va ijobiy ta‘sirleri o‘rganilgan. Asosiy e‘tibor qishloq xo‘jaligi, ishlab-chiqarish va infratuzilma qurilishlarining ekologik muhitga ko‘rsatgan ta‘siri o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida hududdagi tabiiy muvozanatning buzilishiga olib kelayotgan asosiy antropogen omillar aniqlangan va tavsiyalar berilgan.

ВЛИЯНИЕ АНТРОПОГЕННЫХ ФАКТОРОВ НА ЧУМКОРТОГ И ЕГО СЕВЕРНЫЕ СКЛОНЫ

Дилдора Ахмедова

студент магистратуры

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Чумкортог, горы Айкор, село Тагоп, горное население и сельское хозяйство, антропогенные факторы, проблема опустынивания, географическое прогнозирование, оценка.

Аннотация: В данной статье анализируются ландшафты Чумкортога и его северных склонов, изучаются отрицательное и положительное влияние на них деятельности человека. Основное внимание уделяется влиянию сельского хозяйства, производства и инфраструктурного строительства на экологическую среду. В результате исследований выявлены основные антропогенные факторы, приводящие к нарушению природного баланса на территории, и даны рекомендации.

Tabiat va jamiyat o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, insonning faoliyati ko'pincha tabiiy muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Chumqortog' va uning shimoliy yonbag'irlari Jizzax viloyatining tabiati va tabiiy resurslari jihatdan muhim mintaqalaridan biri bo'lib, bu yerda qishloq xo'jaligi, chorvachilik va ishlab chiqarish faoliyati keng rivojlangan. Shu sababli ushbu hudud landshaftlarining holatini o'rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi - Chumqortog' va uning shimoliy yonbag'iri landshaftlariga antropogen omillarning ta'sirini tahlil qilish va muvozanatni saqlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Chumqortog'i va uning shimoliy yonbag'irlari - Jizzax viloyatining janubiy qismida joylashga tog' bo'lib, Turkiston tizmasining bevosita davomi hisoblanadi. Chumqortog' G'o'ralash dovonidan boshlanib, uzunligi 70 km ni tashkil qiladi. Chumqortog' g'arbdan sharqqa qarab cho'zilgan bo'lib, Zarafshon va Sangzor daryo havzalari o'rtasida suvayrig'ich vazifasini bajaradi. Chumqortog'ning suvayrig'ich qismi, sharqda G'o'ralash daryosining Langarsoy va Urmitan (Zarafshon daryosining havzasi) daryolarini ajratib turuvchi G'o'ralash dovonidan boshlanadi. G'o'ralash dovondan boshlab shimoliy-g'arb tomon yo'nalib, Urmitan (3102 m) dovoni, Bozorxonim cho'qqisi (3405 m), Qamchiq (2868 m) dovoni keyin, Nomsiz dovonda (3210 m) Chumqortog' janubga qarab buriladi. Lattaband (1995 m) dovonidan janubiy-g'arbga qarab pastlashib ketadi. Eng g'arbiy chekkasida Formontepa va Qurama qishloqlari atrofida, uning balandligi 900 m ga pastlashadi.

Chumqortog'ning shimoliy yonbag'riga nisbatan tik va qisqadir. Molguzar tizmasi Chumqortog'dan shimolga 35-40 gradus burchak bilan ajralib ketib, Sangzor daryo havzasini shimol va shimoliy-sharqdan chegaralanadi. Bu tog' tizmasini Chumqortog'dan o'zining shimoliy-g'arb tomon yo'nalishi va uning gipsometrik balandligi (sharqda 2600 m dan, g'arbda 900 m gacha) katta emasligi bilan ajralib turadi. Tog'ning janubiy yonbag'ri tik va ko'pincha qoyali. Shimoliy yonbag'ri janubiga nisbatan ancha uzun, ayniqsa o'rta va pastki qismida yotiqdir. Chumqortog'ning eng yuqori qismlarini mahalliy aholi Oyqor tog'lari deb ataydi.

Chumqortog' O'zbekistonning Jizzax viloyati va Tojikistonning Sug'd viloyati hududlarida joylashgan. Tog'ning suvayirg'ich qismidan O'zbekiston va Tojikistonning davlat chegarasi o'tgan. Chumqortog', asosan, kenglik bo'ylab cho'zilgan, faqat Qoshtepa dovonidan g'arbdagi qismi janubiy-g'arbgacha yo'nalgan. Chumqortog'i gersin burmalanishida shakllangan antiklinal. Asosan, paleozoyning gilli slanetslari, qumtoshlari, ohaktoshlaridan tashkil topgan. Suvayirg'ich qismi o'tkir, qoyali. Janubiy yonbag'ri nisbatan nishabroq, Sangzor daryosi va uning chap irmoqlari bilan kesilgan.

Tog'ning etaklarida bo'z, yonbag'irlarida tog' o'rmon jigarrang, qo'ng'ir, tog' o'tloq dasht tuproqlar tarqalgan. Bo'z tuproqlarda rang, yaltirbosh, chalov, bug'doyiq, karrak, oq kovrak, gulhayri, betaga va boshqa o'sadi. Butalardan do'lana, pista uchraydi. 1800-3000 m balandliklar orasi archazor. Tog' o'rmon jigarrang, qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan. Pista, irg'ay, zirk, baland bo'yli o'tlar ham o'sadi. 3000 m dan yuqorida subalp o'tloqlari (qo'ng'irbosh, rang, taran, anjabor, taktak) boshlanadi. Tog' etagida lalmikor dehqonchilik, mevachilik, sabzavotchilik rivojlangan. Chorvachilik bilan ham shug'ullaniladi.

Chumqortog' va uning shimoliy yonbag'irlari agrar sohaga ixtisoslashgan tumanlardan biri hisoblanadi. Chumqortog' va uning shimoliy yonbag'irlari landshaftlarini qishloq xo'jaligi uchun baholashda L.N.Babushkin (1964), N.A.Kogay (1971) Sh.S.Zokirov (1972) kabi olimlarning tadqiqotlaridan foydalanildi. Qishloq xo'jaligini amalga oshirish, asosan, relyef, agroiqlimiy resurslar, tuproq sharoiti, yer osti va usti suvlarining joylashishi va ularning mavjudligi kabi omillar bilan belgilanadi.

Sh.S.Zokirov (2016) ta'biri bilan aytganda, tabiiy sharoitni qishloq xo'jaligi uchun baholash dastavval landshaftlarning qishloq xo'jaligida foydalanishini cheklashi mumkin bo'lgan xususiyatlarni aniqlab olishdan boshlanishi kerak. Landshaftlarning bunday xususiyatlari ularning iqlimi, relyefi, tuproqlari, yer usti suvlarining holati kabilar bilan bog'liqdir. Bu komponentlar qishloq xo'jaligi uchun eng muhim omil sifatida ham qaraladi. Shuning uchun ularning ta'sirini o'rganish zarur.

Chumqortog' va uning shimoliy yonbag'irlari to'lig'icha Baxmal tumani hududini egallaydi. Hududda obikor dehqonchilik (9,9 %), lalmikor dehqonchilik (33,1 %) va yaylov chorvachiligi

(56,8 %) qishloq xo'jaligining asosiy yo'nalishlaridir. Sug'oriladigan yerlar tuman hududining atigi 5,8 % (10837 ga) qismini egallaydi. Shundan 3534 ga ekin dalalariga, 3545 ga aholi tomorqa yerlariga va qolgan 3758 ga ko'p yillik daraxtzorlarga to'g'ri keladi. Tuman landshaftlarini qishloq xo'jaligi maqsadida yaroqliligini aniqlashda asosiy mezon sifatida tabiat komponentlari emas, balki bir xil tabiiy sharoitga va xususiyatga ega bo'lgan landshaftlarning morfologik birligi hisoblangan urochishelar olindi. Hududda 51 ta urochishe ajratilgan bo'lib, u baholashning dastlabki ob'ekti hisoblanadi.

Chumqortog' va uning shimoliy yonbag'iri landshaftlarini baholashning murakkab tomoni shundaki, bunda qishloq xo'jaligining asosiy uch tarmog'i – obikor dehqonchilik, bahorikor dehqonchilik va yaylov chorvachiligi uchun alohida mezonlardan foydalaniladi. Bundan tashqari, baholanadigan landshaftning o'zi ko'p komponentli bo'lib, landshaftni yaxlit holda baholash uchun uning ichki tuzilishini aks ettira oladigan yagona ko'rsatkich yo'q. Shuning uchun qishloq xo'jaligi nuqtai nazaridan eng muhim hisoblangan to'rtta komponent: iqlim, tuproq, relyef va yaylov chorvachiligi uchun o'simlik bo'yicha bajarilgani maqsadga muvofiq.

Chumqortog' va uning shimoliy yonbag'iri landshaftlarini urochishe morfologik birligi doirasida baholashning afzal tomoni, ularning obikor, bahorikor va yaylov tiplariga ajratilganligidadir. Landshaftlarni baholashda natijalari 100 ballik shkalada baholanib 5 ta guruhga (sinfga) birlashtiriladi va quyidagi mezonga amal qilinadi:

- eng qulay (100 ball)
- qulay (80 balldan -100 ballgacha)
- o'rtacha (60 balldan - 80 ballgacha)
- o'rtachadan past (40 balldan - 60 ballgacha)
- noqulay (20 balldan – 40 ballgacha)
- yaroqsiz (20 ballgacha)

Antropogen omillar tahlili. Chumqortog' oldi hududlari unumdor yerlar bo'lib, dehqonchilik faoliyatida keng foydalaniladi. Lekin intensiv yer haydash va sug'orish tizimining noto'g'ri ishlashi eroziya va sho'rlanishga olib kelmoqda.

Chumqortog' va uning shimoliy yonbag'irlarida meyordan ortiq chorva mollarni boqilishi o'tloq va yaylovlarning degradatsiyasiga sabab bo'lmoqda. O'simlik qoplami tiklanmayapti, bu esa tuproqning eroziyaga uchrashiga olib kelmoqda. Shundek, tog' jinslari qazib olish, yo'l va boshqa infratuzilma qurilishi natijasida tabiiy landshaftlarning buzilishi kuzatilmoqda.

Chumqortog' va uning shimoliy yonbag'irlarida antropagen omillarni landshaftlariga ta'sirini aniqlashda, birinchi navbatda, bu yerda yashovchi mahalliy aholining nima bilan shug'ullanishi va ixtisoslashuviga bog'liq holda turli darajada o'zgarganligini ko'rish mumkin.

Jumladan, Chumqortog‘ining shimoliy yonbag‘ri Sangzor daryosi irmoqlari havzasiga yo‘g‘ri kelib, mahalliy aholining xo‘jalik faoliyati bog‘dorchilik va chorvachilikdan iborat.

Tog‘ oldi tekislik landshaftlari asosan bog‘dorchilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanish natijasida kuchli o‘zgargan. Asosiy tuprog‘i bo‘z tuproqlar bo‘lib, tinimsiz qishloq ho‘jaligi maqsadida foydalanish oqibatida kuchli degradatsiyaga uchragan. Natijada, dehqonchilik bilan shug‘ilanadigan aholi, bu sohada yetarlicha daromatga ega bo‘la olmaydi. Tog‘ oldi tekisligi landshaftlari tuprog‘iga salbiy ta‘sirning ortishi va uning hatto “Cho‘llanish” muammosiga aylanayotganini ko‘rish mumkin.

Chumqortog‘ining 1500-2000 m balandlik qismlarida landshaftlarga asosiy ta‘siri mahalliy aholining chorvachilik maqsadida keng foydalanayotganligidir. Chumqortog‘i landshaftlari o‘ziga hos fauna va flora bo‘y ekanligini ko‘rish mumkin. Ammo so‘ngi yillarda Chumqortog‘ining shimoliy yonbag‘irlarida chorvachilikdan meyordan ortiq foydalanilayotganligi, tabiiy muozanatni buzilishiga olib kelmoqda. Jumladan, Chumqor tog‘ining shimoliy yonbag‘ridagi Tagop qishlog‘i misolida chorva mollarining landshaftga ta‘sirini olib borilgan tadqiqotlar o‘rganib chiqildi.

Tagop qishlog‘i Chumqor tog‘ining shimoliy yonbag‘ridagi 300 ho‘jalikdan iborat qishloq hisoblanadi. Qishloqda yashovchi doimiy aholi chorvachilik bilan muntazam shug‘ullanib kelmoqda. Har bir ho‘jalikda o‘rta hisobda 5 ta qoramol 12 ta qo‘y va echkilar soni borligi aniqlandi. Bu Tagop qishlog‘ining o‘zida o‘rta hisobda 1500 ta qoramol va 3600 ta qo‘y va echkilarning mavjudligi va ularning barchasi Chumqortog‘ining shimoliy yonbag‘ridagi yil davomida boqiladi. Achinarli tomoni shundan iboratki, bu hududda faqat qishloq aholisining chorva mollarigina emas, balki boshqa qishloqlardan kelayotgan chorvalarning boqilishi jarayoni qariyb 10 yillardan buyon davom etmoqda. Bu esa o‘z navbatida noyob turdagi o‘simliklarning yo‘qolishiga sabab bo‘lmoqda. Chumqortog‘ yonbag‘rida O‘zbekiston “Qizil kitobi” ga kiritilgan Turkiston lolasi, Shirach va Xolmon kabi noyob o‘simliklar o‘sadi.

Oxirgi yillardagi tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, bu kabi noyob o‘simlik turlarining batamom yo‘qolib ketishi yoki areallarini qisqarishi hisobiga landshaftlar strukturasi o‘zgarishiga olib kelmoqda.

So‘ngi yillarda Chumqortog‘ yonbag‘rida ekoturizmning rivojlanishi, aholining bu hududlarga dam olish ehtiyojining yanada oshishi ham landshaftlarning o‘zgarishi o‘z ta‘sirini bermasdan qolmaydi.

Xulosa qilib oladigan bo‘lsak, antropogen omillar ta‘sirida Chumqortog‘ning shimoliy yonbag‘rlarida landshaftlarning tabiiy muvozanatining buzilishi, tuproq unumdorligining pasayishi va biologik xilma-xilliklarning kamayishi kabi salbiy oqibatlarga olib kelmoqda.

Shuningdek, antropogen omilning landschaftlarga ijobiy taraflari o'rganilganda, suv chiqmaydigan hududlarga suvning chiqarilishi, tog' yonbag'rlariga turli xil mevali daraxtlarning ekilishi, agrotexnik ishlarning amalga oshirilish jarayonlari ham mavjudligi inobatga olish lozim.

Chumqortog shimoliy yonbag'ri landschaftlarini yaxshilash maqsadida quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

- hududda tuproqlar eroziyasini oldini olish, muhofaza qilish tizimlarini joriy etish va ekinlarni almashib ekishni qo'llash;
- chorva mollarini boqishda me'yorga rioya qilish, yaylovlardan barqaror foydalanishni yo'lga qo'yish;
- tog' jinslari qazib olingan hududlarni tiklash uchun, ekologik rekultivatsiya dasturlarini amalga oshirish;
- antropogen ta'sirlarni doimiy ravishda kuzatib borish uchun maxsus monitoring tizimini joriy qilish lozimdir.

Foydalangan adabiyotlar

1. Alibekov L.A. Inson va tabiat. Darslik. Samarqand: SamDU, 2020 y
2. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. Toshkent., "O'qituvchi", 1996 y.
3. Hakimov Q, G'o'dalov M. Jizzax viloyati geografiyasi. Jizzax: "Sangzor", 2004
4. G'o'dalov M. R. Jizzax viloyati tabiati va uni muhofaza qilish. - T.: "Fan va texnologiya", 2014 y
5. G'o'dalov M.R., Muxamedov O.L. Tabiatni muhofaza qilish: muammo va yechimlar. Guliston 2021